

# Qoraqalpog'iston Respublikasida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida

## Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining qarori

№128

23.05.2014.



### Qoraqalpog'iston Respublikasida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida

Qoraqalpog'iston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish va mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini to'liq ta'minlash, eksport hajmini oshirish, bozorlardagi mahsulotlar narxi barqarorligini ta'minlash, fermerlar, tadbirkorlarning moliyaviy ahvolini mustahkamlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

#### QAROR QILADI:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi (Xojametov) hamda Nukus shahar va tumanlar hokimliklarining 2014 yilda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish, intensiv bog' va tokzorlarni tashkil qilish, issiqxona va muzlatkichli-omborxonalarni qurish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasini rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan loyihalarni amalga oshirish yuzasidan axboroti **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan (Mustafoev) **bir hafta muddatda** tasdiqlangan loyihalar doirasida qoramol sotib olish bo'yicha "Qoniratbay-Mehri" MChJning konvertatsiya hisob raqamida turgan **984,0 mln. so'm** mablag'ini xorijiy valyutaga konvertatsiya qilinishida amaliy yordam so'ralsin.
3. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi (Xojametov), Markaziy bankning Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi (B.Allaniyazov), tijorat banklari va tumanlar hokimlari bilan birgalikda 2014 yilda oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish yuzasidan qo'shimcha amalga oshiriladigan loyihalar manzilli Dasturi ishlab chiqilganligi **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

#### Shahar va tumanlarda 2014 yilda qo'shimcha amalga oshiriladigan:

- qoramolchilikni rivojlantirish bo'yicha loyihalar manzilli Dasturi **1-ilovaga;**
- parrandachilikni rivojlantirish bo'yicha loyihalar manzilli Dasturi **2-ilovaga;**
- qo'y va echkichilikni rivojlantirish bo'yicha loyihalar manzilli Dasturi **3-ilovaga;**
- baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha loyihalar manzilli Dasturi **4-ilovaga;**
- asalarichilikni rivojlantirish bo'yicha loyihalar manzilli Dasturi **5-ilovaga;**
- intensiv bog' barpo qilish eski mevali bog'larni rekonstruktsiya qilish bo'yicha loyihalar manzilli Dasturi **6-7-ilovalarga;**
- tokzorlar barpo qilish va eski tokzorlarni rekonstruktsiya qilish bo'yicha loyihalar manzilli Dasturi **8-9-ilovalarga;**
- issiqxona qurish bo'yicha loyihalar manzilli Dasturi **10-ilovaga;**
- muzlatkichli-omborxonalarni qurish bo'yicha loyihalar manzilli Dasturi **11-ilovaga;**
- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasini rivojlantirish bo'yicha loyihalar manzilli Dasturi **12-ilovaga;**
- sanoat sohasini rivojlantirish bo'yicha loyihalar manzilli Dasturi **13-ilovaga;**
- xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha loyihalar manzilli Dasturi **14-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

Markaziy bankning Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi (B.Allaniyazov), tijorat banklari mazkur qaror bilan tasdiqlangan loyihalarni amalga oshirish uchun talab qilingan kredit mablag'larini Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi miqdoridagi yillik foizlarda ajratilishini ta'minlasin.

4. Markaziy bankning Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi (B.Allaniyazov), tijorat banklari va tumanlar hokimlari bilan birgalikda **bir**

**hafta muddatda** tasdiqlangan loyihalarning har biri bo'yicha **joriy yilning 1 noyabriga qadar** to'liq ishga tushirishga qaratilgan tarmoq (setevoy) grafiklarini ishlab chiqib, tasdiqlasin va Vazirlar Kengashiga kiritsin.

5. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi (Xojametov), Markaziy bankning Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi (Allaniyazov) va tijorat banklari bilan birgalikda tasdiqlangan loyihalarni tarmoq (setevoy) grafiklarida ko'rsatilgan muddatlarda bajarilishini joylarga chiqqan holda har **15 kunda** tanqidiy muhokama qilib, ularni amalga oshirishda va kreditlar ajratilishida yuzaga kelgan muammolarni o'z vaqtida hal qilib borsinlar.

6. Iqtisodiyot vazirligi (Nabatov), Markaziy bankning Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi (Allaniyazov) tumanlar hokimliklarida tijorat banklari, moliya, soliq boshqarmalari, qishloq va suv xo'jaligi bo'limi, Davlat raqobat boshqarmasining malakali mutaxassislaridan iborat bo'lgan **maxsus Shtablar** tashkil etib, loyihalarning kunlik monitoringini olib borilishini ta'minlasinlar.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi (Xojametov), Yer resurslari va davlat kadastr boshqarmasi (Jalelov), tumanlar hokimliklariga yangi intensiv mevali bog'lar va tokzorlarni barpo etish, dasturda ko'rsatilgan oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yer maydonlarini o'z vaqtida belgilangan tartibda ajratib berish vazifasi yuklatilsin.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari (Mamutov), Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi (Xojametov) zimmalariga yuklatilsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining Raisi

B.Yangibaev

*Ko'rib chiqildi:*

 

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)  
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)  
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)